TO‘QIMA MATOLAR DIZAYNIDA XROMATIK RANG BIRIKMALARIDAN FOYDALANISH

Abduvoxidova Shaxnoza Abduxalil qizi
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, magistr

Annotatsiya. *Mazkur tezisda xromatik rang birikmalaridan foydalanish asosida to‘qima matolar dizaynini takomillashtirish masalasi ko‘rib chiqilgan. Zamonaviy to‘qimachilik mahsulotlarida matoning nafaqat sifati va funksional xususiyatlari, balki estetik ko‘rinishi ham muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda rangshunoslik asoslari, rang uyg‘unligi qonuniyatlari, xromatik va axromatik ranglarning o‘zaro birikishi hamda ularning mato dizaynidagi o‘rni tahlil qilingan. Ranglarning toni, to‘yinganligi va yorqinligi kabi asosiy xususiyatlari asosida rang yechimlarini shakllantirishga e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *xromatik rang, axromatik rang, rang uyg‘unligi, to‘qima mato, mato dizayni, rang klassifikatori, koloristika.*

Abstract. *This thesis examines the issue of improving the design of woven fabrics based on the use of chromatic color combinations. In modern textile products, not only the quality and functional characteristics of the fabric but also its aesthetic appearance are of great importance. The study analyzes the fundamentals of color science, the principles of color harmony, the interplay of chromatic and achromatic colors, and their role in fabric design. The focus is on developing color solutions based on the primary characteristics of colors, such as hue, saturation, and brightness.*

Keywords: *chromatic color, achromatic color, color harmony, woven fabric, fabric design, color classifier, color theory.*

Аннотация. *В данном тезисе рассматривается проблема совершенствования дизайна тканых материалов с помощью хроматических цветовых сочетаний. В современных текстильных изделиях большое значение имеют не только качество и функциональные характеристики ткани, но и ее эстетический вид. В работе анализируются основы теории цвета, принципы цветовой гармонии, взаимодействие хроматических и ахроматических цветов, а также их роль в дизайне тканей. Особое внимание уделено формированию цветовых решений на основе основных характеристик цветов, таких как оттенок, насыщенность и яркость.*

Ключевые слова: *хроматический цвет, ахроматический цвет, цветовая гармония, ткань, дизайн тканей, классификатор цветов, теория цвета.*

Zamonaviy to‘qimachilik sanoatida mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta’minlashda estetik ko‘rinish va rang yechimi muhim omillardan biridir. To’qimachilikda dizayn naqshdan boshlanadi deb o‘ylashadi, lekin amalda xaridorni birinchi jalb qiladigan narsa — aynan rang bo’lib, 70% holatda xaridor rangga qarab tanlaydi. Mato dizaynida ranglarning to‘g‘ri tanlanishi mahsulotning estetik qiymatini va bozordagi jozibadorligini oshiradi. Xromatik ranglar o‘zining yorqinligi, ifodaliligi va emotsional ta’siri bilan to‘qimachilik dizaynida alohida imkoniyat yaratadi.

To‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish insoniyat tarixida qadimdan shakllangan bo‘lib, ranglar ham turli xalqlarning madaniy qarashlari, urf-odatlari va ramziy tushunchalari bilan bog‘langan. Shu sababli mato dizaynida rangni faqat bezak elementi sifatida emas, balki kompozitsiyaning mazmuni va emotsional ta’sirini belgilovchi vosita sifatida o‘rganish zarur.

Shveytsariyalik mashhur ekspressionist rassom, dizayner va pedagog bo’lgan Johannes Ittenning rang doirasi nazariyasiga ko’ra, ranglar uch asosiy guruhga ajratiladi: asosiy ranglar — qizil, ko‘k va sariq; ikkilamchi ranglar — asosiy ranglar aralashmasidan hosil bo’lgan yashil, to‘q sariq va binafsha; uchinchi darajali ranglar esa asosiy va ikkilamchi ranglarning aralashmasidan hosil bo’lgan ranglardir. Amerikalik rassom va pedagog Genri Mansell (1858-1931) sxemasiga ko’ra esa rangning 3 ta asosiy xususiyatlari bo’lib, bular - rang toni, to‘yinganlik va yorqinlikdan iboratdir. Ushbu ko‘rsatkichlar dizayn yechimini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.



1-rasm. **Johannes Itten rang doirasi**

Ranglar xromatik va axromatik guruhlarga ajratiladi. Xromatik ranglar mato kompozitsiyasiga yorqinlik, dinamika va emotsional ifodaviylik beradi, axromatik ranglar (qora, oq va kulrang) esa ranglar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash imkonini yaratadi. Dizaynda ranglarning uyg‘un va yoqimli taassurot uyg‘otadigan tarzda joylashuvi rang garmoniyasi deb ataladi. Rang garmoniyasi: 1-to‘ldiruvchi,

2-analogik, 3-monoxromatik, 4-bo‘lingan to‘ldiruvchi, 5-ikki karra to‘ldiruvchi va 6-kontrast uchlik kabi rang uyg‘unligi qoidalariga tayangan holda hosil qilinadi. Ushbu teoriya rangshunos olim Johannes Itten tomonidan ilgari surilgan bo’lib, badiiy san’at va dizaynga oid bo’lgan bir qator sohalarda qo’llaniladi.



2-rasm. **Johannes Itten teoriyasiga ko’ra hosil qilingan rang garmoniyasi turlari**

Rangning psixologik ta’siri - rang tanlovi matoning estetik qabul qilinishiga va insonning emotsional holatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ko‘k rang ishonch va tinchlik, yashil rang tabiiylik va osoyishtalik, sariq rang quvonch va iliqlik, qizil rang esa energiya, kuch va diqqat kabi hissiyotlarni beradi. Shu jihatdan rang kombinatsiyasini tanlashda nafaqat kompozitsion uyg‘unlik, balki rangning psixologik ifodasi ham hisobga olinishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, xromatik rang birikmalarini ilmiy asosda tanlash va ularni to‘qima mato kompozitsiyasiga uyg‘un kiritish orqali estetik, zamonaviy va amaliy ahamiyatga ega dizaynlar yaratish mumkin. Rang birikmalarining nazariy

tahlili rang nazariyasi, psixologik ta’sir va kompozitsion qonuniyatlarni chuqur o‘rganish dizaynerga yuqori estetik va funksional mahsulot yaratish imkonini beradi. Ushbu tadqiqotdan to‘qimachilik matolari dizaynida rang tanlash jarayonida, rang uyg‘unligini asoslash va yangi koloristik yechimlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Козлов В.Н. Основы художественного оформления текстильных изделий. -М:. Легкая и пищевая промышленность, 1981.-264.
2. Бесчастнов Н.П. Изображение растительных мотивов. -М:.ВЛАДОС, 2004.
3. Hasanboeva G.K. To’qimachilik dizayn tarixi.- T.: Iqtisodiyot - Moliya, 2007.
4. Uzoqova U.R. To’qima matolarini dizayn asoslari. Toshkent.TTYSI, 2024.
5. Узакова У.Р. Основы дизайна текстильных материалов.Ташкент 2023.
6. Sabirov M.M. Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari. Toshkent 2021.
7. Steven Bleicher Contemporary color theory and use. USA, NY Delmar, 2012
8. Axel Buether Colour - Design principles,planning strategies,visual communication. Munich, 2014.